



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	



STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Tashibekova Munajat Xoshimovna

Namangan davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning STEAM yondashuvi asosidagi metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an'anaviy ta'lim metodlarining cheklanishi hamda o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishdagi mavjud muammolar aniqlangan. Nazariy asos sifatida Canale va Swain tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentlik modeli, STEAM yondashuvi, integrativ ta'lim konsepsiyasi hamda CLIL metodikasi ko'rib chiqiladi. STEAM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan metodik model maqsad, mazmun, faoliyat va natija komponentlarini qamrab oladi. Model doirasida fanlararo integratsiya hamda kommunikativ faoliyatni rivojlantirish vositalari, jumladan, muhokama, loyiha himoyasi, debat va muammo yechishga yo'naltirilgan dialoglar tizimli tarzda uyg'unlashtiriladi.

Kalit so'zlar: STEAM, kommunikativ kompetentlik, boshlang'ich sinf, metodik model, integrativ ta'lim, CLIL.

Abstract: The article analyzes methodological opportunities for developing communicative competence in primary school students based on the STEAM approach. The study identifies the limitations of traditional teaching methods and the existing challenges in developing students' speech activity. The theoretical framework includes the communicative competence model developed by Canale and Swain, the STEAM approach, the concept of integrative education, and the CLIL methodology. The proposed methodological model based on the STEAM approach encompasses goal, content, activity, and outcome components. Within the model, interdisciplinary integration and tools for developing communicative activity, including discussions, project presentations, debates, and problem-solving dialogues, are systematically integrated.

Key words: STEAM, communicative competence, primary education, methodological model, integrative education, CLIL.

Аннотация: В статье анализируются методические возможности формирования коммуникативной компетентности у учащихся начальных классов на основе STEAM-подхода. В ходе исследования выявлены ограничения традиционных методов обучения, а также проблемы, связанные с развитием речевой деятельности учащихся. В качестве теоретической основы рассматриваются модель коммуникативной компетентности, разработанная Canale и Swain, STEAM-подход, концепция интегративного обучения, а также методика CLIL. Предложенная методическая модель, основанная на STEAM-подходе, включает компоненты цели, содержания, деятельности и результата. В рамках модели системно интегрируются междисциплинарные связи и средства развития коммуникативной активности, такие как обсуждение, защита проектов, дебаты и проблемно-ориентированные диалоги.

Ключевые слова: STEAM, коммуникативная компетентность, начальная школа, методическая модель, интегративное обучение, CLIL.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishdan iboratdir. Mazkur kompetentlik shaxsning ijtimoiylashuvi, mustaqil fikrlashi hamda turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, ularning fikrini erkin va mantiqiy ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Amaliy kuzatishlar va pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish jarayonida o'quvchilar ma'lum darajada nazariy bilimlarga ega bo'lsalar-da, ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, o'quvchilarning mustaqil fikr bildirish, muammoli vaziyatlarda muloqotga kirishish, o'z pozitsiyasini asoslab berish kabi ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida o'qitish jarayonida reproduktiv metodlarning ustunligi, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi interaktiv va integrativ yondashuvlarning yetarli darajada qo'llanilmayotganini ko'rsatish mumkin.

So'nggi yillarda ta'lim tizimiga joriy etilayotgan STEAM yondashuvi fanlararo integratsiya, muammoli o'qitish, amaliy faoliyat va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim, balki ko'nikma va kompetensiyalarini, jumladan, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq olib borilgan ilmiy-pedagogik tahlillar STEAM yondashuvi asosida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning aniq metodik asoslari, samarali usul va vositalari yetarli darajada ishlab chiqilmaganini ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini samarali shakllantirish zarurati ushbu jarayonni amalga oshirishga xizmat qiluvchi STEAM yondashuviga asoslangan metodik ta'minotni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqot muammosini chuqurroq asoslash maqsadida ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan mavjud metodik yondashuvlar, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar tahlil qilinib, o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish zarurati aniqlanadi. So'rovnomaga tahlillariga ko'ra, dars jarayonlarida qo'llanilayotgan darsliklar asosan o'quvchilarning reproduktiv faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu bois, o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, o'z fikrini asoslab berish hamda samarali muloqotga kirishish kabi muhim kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi.

Ta'lim jarayonida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan mavjud metodlar, ya'ni o'quvchilarning ta'lim jarayoniga innovatsion, xususan, STEAM yondashuviga asoslangan holda jalb etilishi, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan samarali metodik tizimni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogika va til o'qitish metodikasida kommunikativ kompetentlik tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Kommunikativ kompetentlik tushunchasi ilk bor Michael Canale va Merrill Swain tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Kommunikativ kompetentlik grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlar yig'indisi sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini egallashi, balki ularni real muloqot jarayonida qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning mazmuni kengaytirilib, u shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi kompleks kompetensiya sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy ta'lim paradigmatlaridan biri bo'lgan STEAM yondashuvi esa fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalashgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning muammoli fikrlash, ijodkorlik va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda STEAM yondashuvi ko'proq texnik va tabiiy fanlar doirasida qo'llanilishi keng yoritilgan.

Integrativ ta'lim konsepsiyasi ham o'quvchilarning bilimlarini turli fanlar kesimida uyg'unlashtirish orqali yaxlit tasavvur hosil qilishga qaratilgan. Ushbu yondashuv o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish nazariy jihatdan bir necha bor tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan bo'lib, kommunikativ kompetentlikni STEAM yondashuvi bilan integratsiyalash, fanlararo asosda kommunikativ faoliyatni tashkil etish hamda ushbu jarayonni metodik jihatdan ta'minlash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida kommunikativ kompetentlik o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni tushunishi, o'z fikrini aniq, ravon va mantiqiy ifodalashi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi, tinglash va javob qaytarish ko'nikmalarini egallashi bilan tavsiflanadi.

Michael Canale va Merrill Swain modeliga ko'ra, bu yoshda kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya va strategik kompetensiyalar shakllanadi. Boshlang'ich sinfda ayniqsa diskursiv va strategik komponentlarni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – bu integrativ ta'lim modeli bo'lib, STEAM modeli fanlararo bog'liqlikni ta'minlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi, amaliy faoliyatga yo'naltiradi, ijodkorlik va muloqotni rag'batlantiradi.



Boshlang'ich ta'limda STEAM o'yin va faoliyat asosida o'rganish, loyiha va kichik tajribalar orqali bilim olish, guruhda ishlash orqali muloqotni kuchaytirish kabi xususiyatlar bilan ahamiyatlidir. STEAM yondashuvi kommunikativ kompetentlikni bevosita emas, balki faoliyat orqali bilvosita rivojlantiradi.

STEAM yondashuvi muammoli vaziyatlar yaratish orqali ahamiyatlidir, ya'ni "Qanday qilib qog'ozdan mustahkam ko'prik qurish mumkin?" kabi muammoli vaziyatlar yaratish aynan ko'zlangan maqsadga olib boradi. Bu jarayonda o'quvchilar fikr bildiradi, bahslashadi, qaror qabul qiladi. Shuning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faolligi oshadi.

Keyingi bosqich – guruhli loyiha ishlari bo'lib, o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi, vazifani birgalikda bajaradi hamda natijani himoya qiladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini, tinglash madaniyatini, fikrni asoslashni rivojlantiradi.

Keyingi bosqich prezentatsiya va himoya bo'lib, har bir loyiha yakunida o'quvchilar o'z ishini tushuntiradi, savollarga javob beradi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining monologik nutqi rivojlanadi, o'ziga ishonchi ortadi.

So'nggi faoliyat Art (ijodiy komponent) orqali ifoda qilish bo'lib, o'quvchilar rasm chizish, sahnalashtirish, hikoya tuzish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi. Bu til va tafakkur integratsiyasini kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni STEAM yondashuvi asosida tizimli, bosqichma-bosqich va samarali shakllantirishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, muloqot jarayonida faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, jamoada ishlash va fikr almashish madaniyatini shakllantirish kabi vazifalarni qo'yishdan iborat.

STEAM elementlari asosida tanlangan o'quv materiallarini Science (fan) – tabiat hodisalari, oddiy tajribalar asosida muhokama mavzulari; Technology (texnologiya) – raqamli vositalar, multimedia taqdimotlar; Engineering (muhandislik) – oddiy konstruksiyalar, modellar yaratish; Art (san'at) – rasm, hikoya, sahnalashtirish orqali ifoda; Mathematics (matematika) – mantiqiy fikrlash, hisoblash va izohlash asosida tanlash lozim. Shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda, muammoli va qiziqarli vaziyatlar asosida tanlash lozim.

Boshlang'ich sinf uchun "Think-Pair-Share" (o'quvchi o'ylaydi, juftlikda muhokama qiladi, sinfga taqdim etadi), "Project-Based Learning" (loyiha asosida o'rganish), "Problem-Based Learning" (muammo yechish asosida o'rganish), "Storytelling" (hikoya orqali tushuntirish) kabi samarali STEAM metodlari hisoblanadi. Ushbu metodlarning afzalliklari sifatida kommunikativ faollikni oshiradi, nutqiy vaziyatlarni ko'paytiradi, tabiiy muloqot muhitini yaratadi, o'quvchini passivdan aktivga o'tkazadi.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda asosiy metod va shakllar sifatida tanlab olingan metodlarni STEAM yondashuvi asosida integratsiyalashda avvalo kommunikativ faoliyat turlarini aniqlab olishdan boshlash lozim. Masalan:

- debat – o'quvchilar o'z fikrini himoya qiladi;
- loyiha himoyasi – bajarilgan ishni taqdim etadi;
- muammo yechish dialoglari – savol-javob orqali yechim topadi;
- savol-javob va muhokama – fikr almashish.

Ushbu ta'lim shakllarini Science – muammo qo'yish va muhokama etish; Technology – prezentatsiya va vizual ifoda; Engineering – loyiha va model yaratish; Art – kreativ ifoda (rasm, hikoya); Math – izohlash va asoslash asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikning shakllanish darajasini aniqlash maqsadida maxsus baholash mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning fikrni aniq, ravon va mantiqiy ifodalash qobiliyati, muloqot jarayonida faol ishtirok etish darajasi, berilgan savollarga mazmunli va to'liq javob qaytara olish ko'nikmasi asosiy indikatorlar sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'z fikrini dalillash va asoslab berish qobiliyati, shuningdek, jamoada ishlash jarayonida hamkorlikka kirishish, fikr almashish va umumiy qarorga kelish ko'nikmalari ham muhim baholash mezonlari sifatida e'tiborga olinadi. Mazkur mezonlar o'quvchilarning nutqiy va ijtimoiy-kommunikativ faoliyatini kompleks baholashga xizmat qiladi.

Mazkur mezonlar asosida olib borilgan pedagogik faoliyat natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning kommunikativ rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, o'quvchilarning nutqiy faolligi sezilarli darajada oshadi, ular turli kommunikativ vaziyatlarda erkin va faol ishtirok eta boshlaydi. Shuningdek, o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish, o'z nuqtai nazarini asoslash va himoya qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Bundan tashqari, guruhli faoliyatlar va loyiha ishlari jarayonida o'quvchilarda jamoaviy muloqot madaniyati rivojlanib, ular o'zaro hurmat, tinglash va samarali hamkorlik asosida muloqot olib borishga o'rganadi. Natijada, kommunikativ kompetentlikning asosiy komponentlari bosqichma-bosqich shakllanib, o'quvchilarning umumiy o'quv-biluv faoliyati samaradorligi ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

An'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga reproduktiv faoliyatga yo'naltirilganligi sababli, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini to'liq shakllantirish imkonini bermaydi. Tadqiqot davomida STEAM yondashuvi asosida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish fanlararo integratsiya, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati va interaktiv metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, STEAM yondashuvi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Uni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki umumiy kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Canale, M., Swain, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching. *Applied Linguistics*, 1980, vol. 1, no. 1, pp. 1–47.
2. Johnson, D. W., Johnson, R. T. *Cooperative Learning and Communicative Competence*. New York: Routledge, 2009.
3. Beers, S. Z., Stevens, R. STEAM education in elementary schools: theory and practice. *Journal of STEM Education*, 2019, vol. 20, no. 3, pp. 15–25.
4. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
5. Robinson, K. *Out of Our Minds: Learning to Be Creative*. Chichester: Capstone, 2011.
6. Gonen, S., et al. Integrating STEAM in primary education: benefits and challenges. *International Journal of Education in Mathematics, Science and Technology*, 2021, vol. 9, no. 4, pp. 456–470.
7. Abdurakhmonov, B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodikasi. Tashkent: "Fan va ta'lim", 2020.
8. Karimova, M. STEAM yondashuvi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyati. *Pedagogika va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 2022, no. 2, pp. 33–42.
9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Boshlang'ich ta'lim standartlari*. Tashkent, 2018.
10. National Science Teachers Association. *NSTA Position Statement: Integrating STEM/STEAM in K–6 Classrooms*. Washington, D.C.: NSTA, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.